



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘zbek shevashunosligi markazi

**“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI:
AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari**

2024-yil 25-may

Toshkent – 2024

“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2024. 619 bet.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Jamoldinova O.R., pedagogika fanlari doktori, professor;

Normamatov S.M., filologiya fanlari doktori (DSc), professor;

Abdushukurov B.B., filologiya fanlari doktori, professor;

Ashirboyev S., filologiya fanlari doktori, professor;

Jo‘raqo‘ziyev N.I., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Tilavov A.X., filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Xidraliyeva Z.R., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Aliqulova H.Q., katta o‘qituvchi;

Turdialiyev A., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Qodirov U.A., o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrası tomonidan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: maliyot, metodologiya, yangicha yondashuv”** mavzusidagi 2024-yil 25-mayda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,
Qabül ajlang kijov bola sizga salom jor-jor,

Bog'-oila, yor, sevdishganlar uchrashuvchi visol joyi. Hayot quvonchhlari ramziy ma'nolariga ega. Butun borliq ulkan olam deb anglansa, bog' kichik olam modelidir.

Kuyov ta'riflanganda yangi boqqa kirib chiqqan deb takidlanishga sabab, bog' bu uning oila ichhidagi o'zi qurayotgan yangi bir oilaga, yangi olamga ishoradir. Kuyov so'zi kelinning ota-onasi hamda katta yoshdagi barcha qarindoshlarning nutqida qo'llanilib, singilning eri, qizning eri va yoshi kichik barcha qarindosh qizlarning turmush o'rtog'i ma'nosini bildiradi. Qiz tomonga qarashli bo'lgan katta yoshdagilar, yor-birolarlar va qo'ni-qo'shnilar bari-o'zidan kichik qizning erini kuyov deb atayveradilar. Bu so'z shevada **kuyov, kiyov, kiyav** kabi shakllarda uchraydi.

Atlas ko'jlaq qijqimi, jigitlarning shilqimi,
Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,
Qabül ajlang kijov zo'ralar silarga salom jor-jor.
Bo'jnimdagi marjonim to'kili:b ado bo'ldi,
Silarga ajtgan kelin salomim, do'slarim tamom bo'ldi-jei.

Do's-do'st bu so'z ham huddi siz kabi ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida tovush tushishi sodir bo'lyapti.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Qo'qon arealidagi xalq og'zaki ijodi namunalari o'ziga xos dialektologik xususiyatlarga ega. Tadqiqotimiz davomida hududdagi namunalarda turli fonetik hodisalar, leksik farqlar, morfologik o'zgarishlarni aniqlashga va ularni tahlil qilishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ashirboyev . O'zbek dialektologiyasi. Toshkent. 2021.
2. A.Маматов. Узбек тили лексикологиясидан материаллар. Тошкент .2009
- 3.А.Ю.Алиев.Наманганская группа говоров узбекского языка. Ташкент.
3. Ш.Носиров.Кокандский говор узбекского языка. Ташкент.1965.
4. Х.Дониёров.Кипчок диалектларининг лексикаси. ФАН. Ташкент.1979
5. Toxliyev B., Sheraliyev E., Aliqulova H. Yor-yorlar. O'zbek xalq qo'shiqlari.-T.: 2009.
6. Internet ma'lumotlari.

GO'RO'G'LI TURKUM DOSTONLARIDA HASANXON OBRAZI TAHLILI

ANALYSIS OF THE IMAGE OF HASAN KHAN IN THE EPICS OF THE GOROGLI SERIES

G'afforova Sevinch Zayniddin qizi

ToshDO'TAU magistranti

sevinchluckygirl@gmail.com

Annotatsiya. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari yaratilishi, tarqalishi doirasi va ijro xususiyatlari, syujet tarkibi, kompozitsion qurilishi va uslubiy o'zgachiliklari, turkumlanish darajalari va jonli, og'zaki ijro sharoitlarida saqlanish holati bilan jahon xalqlari epik ijodiyotida ulkan bir badiiy hodisadir. Noyob folklor merosiga aylangan keng qamrovdagi epos Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq, Sibir, qisman Yevropa xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, uning versiya va variantlari o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qoraqalpoq, uyg'ur, ozarbayjon, turk, qrimtatar, arman, gruzin, kurd, ajar, lazgin, abxaz, qumi, gagauz, qaraim xalqlari folklor ijodkorlari va ijrochilaridan yozib olingan hamda nashr etilgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab "Go'ro'g'li" turkum dostonlari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi, ammo

ularda Hasanxon obrazining xususiyatlari mufassal yoritib berilmagan. Quyidagi maqolada ushbu obrazning dostonidagi o'rnini aniqlashga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Hasanxon, turkum, obraz, tahlil, genezis, tasvir.

Abstract. The epics of the "Gorogli" series are a huge artistic event in the epic creativity of the peoples of the world with the creation, scope of distribution and features of singing, plot composition, compositional construction and stylistic differences, levels of categorization and preservation in the conditions of live oral performance. The wide-ranging epic, which has become a unique folklore heritage, is widespread among the peoples of Central Asia, the Caucasus, the Middle East, Siberia, and partly in Europe. Its versions and variants are Uzbek, Tajik, Turkmen, Kazakh, Karakalpak, Uyghur, Azerbaijani, Turkish, Crimean Tatar, Armenian, Georgian, Kurdish, Ajar, Lazgin, Abkhaz, Kumyk, Gagauz, Karaim folk artists and performers were recorded and published. Since the second half of the last century, studies have been carried out on the epics of the "Gorogli" series, but the characteristics of Hasan Khan's character have not been detailed in them. The following article is a prelude to the works aimed at determining the place of this image in the epic.

Key words: Hasankhan, category, image, analysis, genesis, image.

O'zbek folklorshunosligida "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarini o'rganish, ular haqida muayyan bir ilmiy fikrlar bildirish dostonlarning alohida-alohida kitoblar tarzidagi nashrlari bilan boshlandi. Bu jihatdan Hodi Zarifning 1941-yilda nashr etilgan "Ravshan" va "Malika ayyor" dostonlariga yozgan so'zboshilari xarakterlidir. Taniqli folklorshunos Buyuk Karimiyning "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoniga (1941) yozgan so'zboshisi ham ushbu turkum dostonlarini ilmiy asoslarda chinakamiga o'rganishni boshlab berdi. Xalq dostonlarini to'laqonli ravishda o'rganish ishlari natijasida V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarning "O'zbek xalq qahramonlik eposi"(1947) monografiyasi maydonga keldi. Monografiyaning kattagina bir bobi (165-279-b), shuningdek, "O'zbek eposining umumiy xarakteristikasi. G'oyalari, obrazlari, uslub" bobining (302-457-b) asosiy qismi "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari tahliliga bag'ishlangan. Unda olimlar birinchi marta "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ikki geografik hududda, demakki, bir-biriga yaqin ikki epik an'analar birligida o'nlab xalqlar orasida tarqalganligini asoslab bergan.

O'zbek folklorshunosligida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari, uning ayrim namunalarini muayyan muammolar kesimida monografik tarzda o'rganish bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borila boshlandi va bu boradagi izlanishlar bugun ham davom ettirilmoqda. Jumladan, marhum professorlar M.Saidov hamda M.Murodov tadqiqotlarida bosh qahramon masalalariga [M.Saidov 1964, 1969; M.Murodov 1962, 1975] alohida etibor qaratgan bo'lsa, boshqa olimlarda turkumlik, ayrim dostonlarning turkumda tutgan o'rni, ulardagi syujet va kompozitsiya, ba'zi an'anaviy obrazlarning tadriji va tush talqini muammolari yoritilgan [M.Mirzayeva 1985; M.Mirkamolova 1972; J.Xalikulov 1984; K.Mamashukurov 1986; S.Sariyev 2007; A.Abdusamedov 1970; J.Eshonqulov 1996, 2011; A.Tilavov 2000; T.Xaydarov 1993].

Dotsent Abdiolim Ergashev "Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi" monografiyasida Janubiy O'zbekiston baxshilari repertuarida Go'ro'g'lining nevaralari Nurali va Sherallilar haqida dostonlar alohida-alohida turkumlar sifatida mavjudligini aniqladi, ularning namunalarini yozib oldi hamda umumo'zbek dostonchiligida tutgan o'rnini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Filologiya fanlari doktori Sh.Turdimovning "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar" monografiyasi(2011) bosh qahramonning tug'ilishi, bolaligi, or olishi, uylanishi va g'oyib bo'lishi haqidagi dostonlarning qiyosiy tahlili orqali "Go'ro'g'li" turkumining shakllanishida asos bo'lgan motivlar, epik qahramon va epik homiy, ularning g'ayri qutbi obrazlari to'g'risida yangicha xulosalarni ilgari surdi, etnos va epos munosabatlariga doir e'tiborli mulohazalar bildirdi. Shuningdek, folklorshunos olimlar T.Mirzayev, M.Qodirov, O.Sobirovlar ham "Go'ro'g'li" turkum dostonlari xususida o'z munosabatlarini bildirib o'tgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, qadimiy mifologik, diniy-ilohiy qarashlarning xalq dostonlarida badiiy-estetik

hodisaga aylanish jarayonlarini o'rganishda, umuman, epos va ijtimoiy-maishiy hayot masalalarini tekshirishda bunday tadqiqotlarning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Dostonlar yuzasidan olib boriladigan tadqiqot ishlarida yetakchi va ko'makchi obrazlarni aniqlash, ularning genezisi, dostonda tutgan o'rni va vazifasini yoritish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan, ushbu turkum dostonlaridagi Go'ro'g'li, Avazxon dostonlari bo'yicha kengroq, Yunus pari, Misqol pari, Hasanxon, yordamchi devlar, xizmatkorlar, qirq yigit haqida ma'lumotlar qisman tahlil etilgan bo'lib, ular ichidan Go'ro'g'lining yana bir farzandi Hasanxon obrazi tahliliga chuqurroq yondashish, ushbu obrazning dostonlar rivojidagi o'rni, vazifasini aniqlash folklorshunoslik uchun ilmiy yangilik hisoblanadi.

Folklorshunos olim Sh.Turdimov o'zining "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari" monografiyasida [Sh.Turdimov 2011: 125] Go'ro'g'lining to'rt Hasani haqida so'z yuritib, ulardan uchta Hasan Ko'lbar, Hasan Chopson va Hasan Yakdasta aslida Go'ro'g'lining sodiq xizmatchi devlari bo'lib, ular doston genezisi Go'ro'g'li Yunus pariga uylanishi natijasida kirib keladi. Ushbu uch dev Ko'hi Qofdan Taka Yovmit eliga Yunus parining ota-onasi topshirig'i bilan uni qo'riqlash uchun jo'natiladi va shu tariqa Go'ro'g'lining sodiq xizmatkorlariga aylanadi. To'rtinchi Hasan esa uning asrandi farzandi Vayangandan keltirilgan Hasanxon obrazi hisoblanadi. Ushbu xulosaga kelishda olim "Xoldorxon" dostonidagi Avazxon tilidan aytilgan ushbu jumlagi tayanadi:

"...Otamning Hasanlari: Hasan Ko'lbar, Hasan Yakdast, Hasan Chopson, Hasan.. shu to'rtovi kelganda qanday qilar eding..." [Xoldorxon. 1981:16]

Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi Hodi Zarifning so'zlariga ko'ra *"Qo'lyozmada ochiq joy qolgan. Bunda to'rtinchi Hasan sifatida Hasanxon nazarda tutilayotirmi, yo boshqa? Aniqlamas"* [Xoldorxon. 1981:16].

Hasanxonning turkum dostonlardagi o'rnini aniqlar ekanmiz, uning bolaligi, o'smirliги, yigitlik chog'i, o'rta yosh paytlari aks etgan sahnalar bir nechta dostonlarda mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, Hasanxonning bolaligi tasvirlangan voqealar Jonmurod o'g'li Po'lkan baxshidan yozib olingan "Hasanxon" va "Chambil qamali" [Jonmurod o'g'li Po'lkan, 1976] dostonlarida aks etgan bo'lib, unda Vayangandan Temirxonning Hasanxon ismli o'g'lini olib kelish jarayonidatilga olingan "o'ziga monand bachalar" so'zi uning hali kichik yoshdagi bola ekanligidan darak beradi:

"..Ana endi Hasanxonni gavhar taxtga mindirib, necha yaxshi kiyimlardan kiygizib, necha o'ziga monand bachalarni oldiga qo'yib, necha karnay-surnay bilan otamning arvohi keldi, deb Temirxon podsho necha saltanat bilan chiqyapti bechora..." [Hasanxon dostoni 1976:51]

Shuningdek, Soqibulbul Temirxon podshoga qarata Hasanxonni otasi qiyofasida kelgan Hasan Chopsonning bo'yniga o'tqazib, deya qilgan murojaati ham Hasanxonning yosh bola ekanligiga misol bo'la oladi.

"...Yosh bachani ko'ndiringlar,

Gavhar taxtdan endiringlar.

Vali bo'lsin nevarasi,

Bobosining yelkasiga

Norvon qo'yib mindiringlar..." [Hasanxon dostoni 1976:57].

"Chambil qamali" dostonidagi Hasan Chopsonning Go'ro'g'liga aytgan ushbu so'zlarida ham Hasanxonning kichik yoshdagi bola ekanligiga misol bor:

"...Hasanxonni bo'ynima mindirsam,

Undan keyin ishonaman so'zingga,

Kokili bo'ynida tursa sildirab,

Har zamonda ko'rsam avjim keladi,

Yaxshi xizmat qip berayin o'zingga..."

[Chambil qamali dostoni 1976: 113]

Ushbu misradagi "kokil" so'ziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlariga ko'ra yangi tug'ilgan chaqaloqning sochi bir yoshga to'lganida olinib, boshining atrofida soch qoldirilgan, va ushbu soch "kokil", "haydar" deb atalgan. Yoki uzoq muddat

farzandli bo'la olmayotgan, farzandlari birin-ketin nobud bo'layotgan oilada tug'ilgan chaqaloqqa bir yoshga to'lgandan keyin sochini oldirganda ensa qismida soch qoldirilib, niyat qilib kokil qo'yiladi va ushbu kokil bolaning sunnat yoshiga yetganda 7-9 yoshida qirib olingan. Mana shu marosim haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqib ushbu dostonlarda Hasanxon 4-9 yosh oralig'idagi bola degan xulosaga kelsak ham bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan shular ma'lum bo'ldiki, "Go'ro'g'li" turkum dostonlarining o'rganilishi o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan bo'lib, bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Ammo Hasanxon obrazining dostonidagi o'rni va vazifasi xususida mufassal ma'lumot yoritilmagan. Ushbu obraz haqidagi ma'lumotlar turkum dostonlari ichida tarqalib yotgan bo'lib, tadqiqot ishining maqsadi ularni to'plab saralashdan iborat. Yuqorida keltirilgan manbalarga asosan Po'ltan baxshi tomonidan kuylangan "Hasanxon" va "Chambil qamali" dostonlarida Hasanxon obrazining bolalik chog'i tasvirlari aks etgan degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chambil qamali. Doston. Aytuvchi: Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan / Nashrga tayyorlovchilar: Muhammadnodir Saidov, Zubayda Husainova // – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976
2. Hasanxon. Doston. Aytuvchi: Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan / Nashrga tayyorlovchi: O.Sobirov// – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976
3. Xoldorxon. Doston. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o'g'li / Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi: H. Zarifov// – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981
4. Shomirza Turdimov. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011.

ANDIJON VILOYATIDA QORAQALPOQ SHEVASINING LINGVISTIK TADQIQI

LINGUISTIC STUDY OF KORAKALPOK DIALECT IN ANDIJAN REGION

Eraliyeva Naimaxon Raxmonjon qizi
Andijon davlat universiteti magistranti
naimaxontokhtasinova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyatining Andijon tumanidagi asli kelib chiqishi qoraqalpoq bo'lgan xalq vakillarining til xususiyatlari, fonetik, leksik jihatdan farqli belgilari to'g'risida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: dialektlar, leksemalar, adabiy til, etnografiya, urf-odat, sheva, leksema, fonetik farq, leksik farq, morfologik farq.

Abstract. This article examines the features of the language, phonetically and lexically different characters of representatives of the people of Karakalpak origin in the Andijan district of the Andijan region.

Key words: dialects, lexemes, literary language, ethnography, tradition, dialect, lexeme, phonetic difference, lexical difference, morphological difference.

Andijon viloyati nafaqat Farg'ona vodiysining, balki mintaqaning eng gavjum, aholisi zich hududlaridan biri sanaladi. Unumdor yer va suv zaxiralariga boyligi asrlar davomida ko'plab

MUNDARIJA

YALPI YIG‘ILISH MA‘RUZALARI

1	Hamidulla Dadaboyev Toshkent viloyati o‘zbek shevalari – til xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan muhim manba	3
2	Salida Sharifova Şota Rustavelinin “Pələng dərisi geymiş pəhləvan” əsərinin Şərq intibahına aid olması və Türk folkloru əsasında yaradılması haqqında	7
3	Güntəkin Binnətova Çağdaş Azərbaycan ədəbi dili və şivələrinin qarşılıqlı münasibətləri	12
4	Murodqosim Abdiyev Dialektal terminologiya – adabiy til lug‘at boyligini oshiruvchi manba	16
5	Baxtiyor Abdushukurov Kul tigin bitigtoshi va o‘zbek tili shevalari	20
6	Berdak Yusuf Alisher Navoiy leksikasi va o‘g‘uz shevalari	26
7	Abdulhay Sobirov Andijon dialektal zonasi haqida ba’zi bir mulohazalar	31
8	Нұрлан Мыңбаев Түркі фольклоры және топан су тақырыбы	35
9	Kifayət İmamquliyeva Azərbaycan dialektlərində özbək dilinin elementləri	44
10	Yo‘ldosh Ibragimov Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarining lingvoareal talqini	48
11	Zulxumor Xolmanova O‘zbek shevalaridagi frazemalarning aksiolingvistik tadqiqi	51
12	Botir Elov, Oqila Abdullayeva Dialektal korpusni qurish va uning ahamiyati	56
13	Samixon Ashirboyev, Nafisa Qilichova O‘zbek shevalari matnlarining audio variantini transkripsiya qilish muammolari	60

1-SHO‘BA. SHEVALAR VA FOLKLORNING ILMIY MUAMMOLARI XORIJLIK OLIMLAR NAZDIDA

1	Özeren Mehmet Çolpan’ın “Buzulgan Öлкеge, Köңil, Tün, Ziyay-yi Kamer” şiirlerine semiyotik bakiş	63
2	Babazadə Rəxşanə Azərbaycan dilinin Salyan dialektində milli leksik arxaizmlər	67
3	Ерсайын Молдасанов, Нуржан Абдувалитов Ұлттық бағыт және қазақ жазуы	75
4	Qüdsiyyə Qəmbərova Azərbaycan şivələrindəki bəzi feillərin özbək dili ilə ortaq paralelləri	84
5	Yarmuxammat Madaliyev, Hulkar Aliqulova Xalq qo‘shiqdarida “bo‘z” so‘zining ma‘no ko‘chish bilan bog‘liq jihatlar	87

6	Shahnoza Nurmatova O'zbek va xitoy xalq ertaklarida ayol obrazi	438
7	Kamoliddin Egamqulov Shomurod shoir ijodida an'anaviylik	442
8	Shoira Axmedova, Nazarova D. Folklorshunos olim portretiga chizgilar	446

6-SHO'BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Mahliyo Darvishaliyeva Namangan viloyati qarluq sheva areallarining o'rganilishi	450
2	Oydin Shuxratova Qo'shrabot hududida qiz bolalar o'ynaydigan o'yinlar	453
3	Masturaxon Sotvoldiyeva Qo'qon arealida to'y-marosim qo'shiqlarining til xususiyatlari	456
4	Sevinch G'afforova Go'ro'g'li turkum dostonlarida Hasanxon obrazi tahlili	458
5	Naimaxon Eraliyeva Andijon viloyatida qoraqalpoq shevasining lingvistik tadqiqi	461
6	Gulshoda Jumaboyeva "Jaziramadagi odamlar" romanida etnofolklorizmlar	463
7	Ozoda Abdusalomova Andijon viloyati kontinuumlari	466
8	Nargiza Abduraxmonova O'zbek va ingliz dialektologiyasini qiyosiy o'rganish tajribasidan: unlilar qiyosi	468
9	Nodira Mahmudova The study of Uzbek wedding songs (yor-yor and kelin salom) in folk art on the example of Chortoq area	470
10	Maftuna Annamurodova "Qutadg'u bilig" asarida mifologik rudimentlar	472
11	Javlonbek Anarboyev O'zbek va turk ertaklaridagi umumiy va farqli motivlar	476
12	Xayrulla Rajabov Baxshichilikda mazmun, ohang va musiqa uyg'unligi	479
13	Shahlo Ergashova Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani shevasidagi ba'zi leksemalar tahlili	482
14	Shaxlo Xoliqulova Yor-yorlarda turli timsollar va ramzlarning o'rni va vazifasi	487
15	Farog'at Tursunova O'zbek xalq qo'shiqlarida qadimgi inonchlarning poetik ko'rinishlari	489
16	O'g'iloy Odiljonova Mahmud Koshg'ariy fonetik-fonologik qarashlari va Norin shevasi	492
17	Oltinoy Razzaqberganova Xorazm "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining badiiy xususiyatlari	495
18	Kumushoy Xoliqulova Bahodir Qobulning "Otachiroq" asaridagi qipchoq lahjasiga oid dialektizmlar	499
19	Gulnoza Samadova O'zbek xalq ertaklarining o'rganilishi va tasnifi	502